

BOLALARNI JAMOAVIY MEHNATGA O'RGATISH ORQALI HAMKORLIK KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH.

Djurayeva Dilfuza Nuriddin qizi

Navoiy viloyati Pedagogik mahorat markazi.

Maktabgacha boshlang 'ich va maxsus ta'lim metodikasi

kafedrası o 'qituvchisi

Bunyoddilfuz@gmail.com (99)7561653

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21849818>

Annotatsiya: Bolalarda jamoaviy mehnatni tashkil etish orqali mehnatga ongli munosabatni tarbiyalashning yana bir talabi bolalarni ilm-fan, madaniyat, texnika va texnologiya borasida yangiliklardan boxabar etish, ularga nisbatan qiziqishni hosil qilish, bu boradagi layoqat, qobiliyat va iqtidorlarini oshirib borishdan iborat. Mehnatga ijobiy munosabatni shakllantirish va mehnat qilishga odatlantirishda atrofdagi kattalar va tengdoshlarining ular mehnatiga bevosita dahldor bo 'lgan jonli na 'muna bo 'lishliklari muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim, bolalar, jamoaviy mehnat, rivojlanish soha kompetensiyalari, ta'lim, tarbiya, rivojlanish markazlari, o 'yin, metod.

Аннотация: Другим условием воспитания у детей сознательного отношения к труду через организацию коллективного труда является информирование детей о новостях науки, культуры, техники и технологий, формирование у них интереса, повышение их компетентности, способностей и талантов в этой области. Формируя позитивное отношение к труду и прививая привычку к труду, важно, чтобы окружающие взрослые и сверстники были для них живым примером, непосредственно вовлеченным в их труд.

Ключевые слова: Дошкольное образование, дети, командная работа, развивающие компетенции, образование, воспитание, центры развития, игра, метод.

Abstract: *Another requirement for educating children in a conscious attitude to work through the organization of collective labor is to inform children about news in science, culture, engineering and technology, to create interest in them, and to increase their competence, abilities and talents in this regard. In forming a positive attitude to work and accustoming them to work, it is important that the adults and peers around them who are directly involved in their work serve as living examples.*

Key words: *Preschool education, children, teamwork, developmental competencies, education, upbringing, development centers, play, method.*

KIRISH

Yosh avlodga mehnat tarbiyasi berish masalasi hozirgi davrda eng dolzarb mavzu hisoblanadi. Mehnat har bir kishi kamolotida va umuman jamiyat taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Bog'cha yoshidagi bolalarni jismoniy, aqliy, axloqiy va estetik tomondan tarbiyalashda mehnat tarbiyasi muhim ahamiyatga egadir. Mehnat har bir yosh guruhidagi bolalarning o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olib tashkil etiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida tashkil etilgan jamoaviy mehnat faoliyati bolalarda kommunikativ, ijtimoiy, shaxsiy(men) hamda bilish¹⁵ kompetensiyalarining rivojlanishiga taynanch vosita hisoblanadi. Ayniqda, bolalarda maktab yoshiga qadar bolalarda kattalar va tengdoshlar bilan muloqotning rivojlanishi kelgusidagi maktab faoliyatida o'qish jarayoning samaradorligini oshiradi.

ADABIYOTLARNI TAHLILI VA USULLARI

Bolalarda jamoaviy mehnatni tashkil etish orqali mehnatga ongli munosabatni tarbiyalashning yana bir talabi bolalarni ilm-fan, madaniyat, texnika va texnologiya borasida yangiliklardan boxabar etish, ularga nisbatan qiziqishni hosil qilish, bu boradagi layoqat, qobiliyat va iqtidorlarini oshirib borishdan iborat. Mehnatga ijobiy munosabatni shakllantirish va mehnat qilishga odatlantirishda atrofdagi kattalar va tengdoshlarining ular mehnatiga bevosita dahldor bo'lgan jonli na'muna bo'lishliklari muhim ahamiyatga ega. Ammo bolalarda jamoada bolalar bilan

¹⁵ O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "Ilk Qadam" o'quv dasturi .2022-yil 4-fevral.

birgalikdagi mehnatga psixologik tayyorgarlikni faqat mehnat faoliyati jarayonidagina tarbiyalash mumkin. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida jamoaviy mehnat faoliyatini tashkil etish uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Uning ijtimoiy xarakteri mehnatda yaqqol ko'rinadi. Shuning uchun ham bolalarda tarbiyachi tomonidan bolalarning birgalikdagi mehnat faoliyatini tashkil eta oladigan sharoitlarni yaratish zarur. Bunda turli yo'llardan foydalanish mumkin:

birinchi yo'l – bu bolalar hamkorlikda ishlashi mumkin bo'lgan xilma-xil mehnatini ko'rsatish hamda ularning ahamiyatini tushuntirish;

ikkinchi yo'l - bu kattalar va bolalar mehnatini bevosita birgalikda tashkil etishdir. Bolalarni jamoa mehnati bilan tanishtirish o'z oldiga ularga mehnat haqida konkret bilim, tasavvur berish hamda tengdoshlarining va kattalarning mehnatiga hurmat bilan qarash, uning qadriga yetish, mehnatga qiziqish va muhabbat uyg'otishni maqsad qilib qo'yadi. Ayni vaqtning o'zida bolalar xulq-atvorida mehnat qilish, jamoada hamkorlikda ishlash, bir-biriga ko'maklashish, vijdonan, chidam bilan ishlash istagini uyg'otishga ta'sir ko'rsatish vazifasi ham hal etiladi.

Xilma-xil mehnat turlarining vujudga kelishi mehnat qilish muntazam tarzda bo'lib, unda hamma bolalar ishtirok etsa va kattalar mehnati bilan tanishtirib borilsa, u tarbiya vositasiga aylanadi.¹⁶

O'z-o'ziga xizmat qilish. Bu bolalar mehnatining bir turi bo'lib, unda bolalar ilk yoshidan boshlab mustaqil ovqatlanishga, yuvinishga, kiyinish va yechinishga, o'yinchoqlarni yig'ishtirib qo'yishga o'rgatiladi. O'z-o'ziga xizmat qilish jarayonida bolalarda mustaqillik, ma'lum maqsad bilan harakat qilish kabi sifatlar shakllanadi, bolalar qo'llaridan kelgan ishni o'zlari bajarishga o'rganadilar. O'z-o'ziga xizmat bolalarda oddiy mehnat turlariga nisbatan qiziqish uyg'otadi, batartiblikka, intizomli bo'lishga, xulq-odobga o'rgatadi.

Bolalar xo'jalik-maishiy mehnatga MTMda va oilada jalb etiladi. Uning mazmuni har xil bo'ladi: xona va MTM maydonchasini yig'ishtirish, stolni bezatish va stoldagi idish-tovoqlarni yig'ishtirish, choy idishlarini, qo'g'irchoq kiyimlarini,

¹⁶ "Maktabgacha pedagogika" F. Qodirova "Tafakkur nashriyoti", Toshkent-2019; 231-bet

mayda narsalarni yuvish, mashg'ulotga kerakli materiallarni tayyorlab qo'yish, mashg'ulotdan keyin stol ustidagi narsalarni yig'ishtirib olish va hokazo.

Tabiatdagi mehnat bolaning har tomonlama rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lib, o'simlik va hayvonlar, yil fasllari, jonsiz tabiat to'g'risidagi bilimlar manbayi, bolalarda mehnatsevarlikni, tabiatga ehtiyotkorlik munosabatini tarbiyalash vositasidir, shu bilan birga bolalar mehnatning bu turi orqali tuproqni ekishga tayyorlash va o'g'itlash, ko'chatni o'tkazish, o'simlik va hayvonlarni parvarish qilish kabi bir qancha mehnat malaka va ko'nikmalarini egallab oladilar. Mehnatning asosan ochiq havoda tashkil etilishi bolalar organizmini chiniqtiradi, ularning sog'ligini mustahkamlaydi.

Qo'l mehnati - mashg'ulot, o'yinlarga mehnat faoliyati uchun zarur bo'lgan o'yinchoq va qurilmalarni tayyorlash bo'yicha bolalar mehnatidir (qog'oz qiyqimlarini tashlash uchun, o'simliklar urug'i uchun qutichalar, qo'g'irchoq kiyimlari, qal- poqchalar, niqoblar va shunga o'xshash narsalar tayyorlash).

NATIJALAR

Maktabgacha yoshdagi bolalarni har qanday mehnat turi jarayonida jamoaviy mehnat tashkillashtirilsa bolalarda quyidagi beshta rivojlanish soha kompetensiyalari integratsiyasini ko'rishimiz mumkin:

Misol: Tabiat burchagida gullarni ekish jarayonini oladigan bo'lsak: Bunda tarbiyachi bolalar birgalikda gullarning urug'lari va ko'chatlarini o'tqazishlari uchun dastlab, tuvaklarni, tuproqni va kerakli jihozlarni tayyorlaydi. Bolalar bu jarayonni birgalikda amalga oshiradilar. Har uchta bola un bitta tuvak tarbiyachi tomonidan tayyorlanadi. Tarbiyachi ko'rsatmasiga binoan dastlab bolalar birgalikda tuvaklarga tuproqni soladilar. Tuproqni solib bo'lgandan, gul urug'lari yoki ko'chatlarni ekadilar va suv quyadilar. Va doimiy ravishta tabiat burchagida o'zlari o'tqazgan gulning o'sishini kuzatadilar va gullarga g'amxo'rlik qiladilar. Ushbu jamoaviy mehnat jarayonida quyidagilar rivojlanishini ko'rib chiqamiz:

1. Bolalar tuproq bilan ishlash jarayonida- mayda motorika, sog'lom turmush tarzi va xavfsizligi (Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzi).

2. Bolalarda jamoaviy mehnat faoliyatida- ijtimoiylashuv, kattalar va tengdoshlar bilan muloqot; hissiyotlar va ularning boshqarilishi; “Men” konsepsiyasi (Ijtimoiy-hissiy rivojlanish).

3. Bolalar jamoaviy mehnat jarayonida o‘zaro munosabatga kirishishda muloqot vositalaridan foydalanadilar; Lug‘at boyligi oshadi- til va nutq (Nutq, muloqot o‘qish va yozish malakalari).

4. Bolalar gullarni ekish va parvarishlash haqidagi yangi bilimlarni tadqiq qilish orqali o‘rganadilar- tadqiqiy bilish va samarali refleksiv(Bilish jarayoni).

5. Gullarni kuzatish va parvarishlash jarayonida- bolalarda estetik did va dunyoni badiiy ta’savvur etish (Ijodiy rivojlanish) sohalari rivojlanadi.

Bundan ko‘rinib turibdiki, bolalar rivojlanishida mehnat faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi.

MUHOKAMA

Maktabgacha yoshdagi bolalarda jamoaviy mehnat faoliyatini shakllantirish bolalarning birgalikda maqsadli harakat qilishga, o‘zaro yordam, hamkorlik va mas’uliyat hislarini rivojlantirishga qaratilgan faoliyat hisoblanadi. Quyida bu faoliyatni shakllantirishga qaratilgan bir necha usullarini tavsiya etish mumkin:

1. Birgalikda maishiy mehnat faoliyatini bajarish. Maktabgacha ta’lim tashkilotida o‘z-o‘ziga xizmat; Markazlardagi faoliyatni tashkil etishda tarbiyachiga ko‘maklashish va sayr vaqtida tabiat quynidagi mehnat asosida.

2. O‘yin orqali bolalarni jamoaviy mehnat faoliyatiga o‘rgatish. Syujetli-rolli va drammashtirish markazida kasbga oid o‘yinlar orqali.

3. Jamoa shaklidagi bajarilgan qo‘l mehnati. Bunda bolalar tashlandiq materiallarni birgalikda ularga qayta jon berishlari mumkin.

4. Rivojlanish markazlarida bolalar uchun tayyorlangan topshiriqlarni bolalar birgalikda bajarishi natijasida bolalarda hamkorlikda ishlash ko‘nikmalari shakllanadi.

XULOSALAR

Xulosa qilib aytganda, jamoaviy mehnat faoliyati bolalarning mas'uliyat hissini his qilishni rivojlantiradi. Masalan, birgalikda o'yinchoqlarni yig'ish yoki kichik bog' yaratish kabi faoliyatlar bolalarga guruhda ishlashni o'rgatadi. Bu o'zaro yordam, hamkorlik ishlash ko'nikmalari, ijtimoiy aloqalar va bir-birini tushunish qobiliyatini kuchaytiradi. Mehnatni bajarishda bolalar o'z ishining natijasini ko'rishadi, bu esa ularda o'z kuchlariga ishonchni oshiradi. Shuningdek, muvaffaqiyatga erishish yoki xato qilish orqali emotsional barqarorlikni o'rganadi. Mehnatni o'rgatish bolalarga uning qiyinligi emas, balki mehnat orqali erishiladigan natijalarni ko'rsatadi. Bu ularga har bir ishning muhimligini tushunishga yordam beradi. Bunday faoliyatlar bolalarda mehnatga nisbatan hurmatni shakllantiradi. Bolalar o'z vazifalarini bajarish orqali mas'uliyatni o'rganadilar. Masalan, o'yinchoqlarni yig'ish yoki o'z joyini tartibga keltirish kabi oddiy ishlar ularda o'zgaruvchan mas'uliyat hissini rivojlantiradi. Mehnat orqali bolalar o'z ijodkorligini namoyon etishlari mumkin. Yuqorida ko'rganimizdek o'simliklarni parvarish qilishda o'z usullarini topishlari yoki o'yinchoqlarni tuzishda yangi g'oyalar yaratishlari mumkin. Bu jarayon bolalarda kreativ fikrlashni oshiradi. Jamoaviy mehnat faoliyati bolalarga turli muammolarni birgalikda hal qilishni o'rgatadi. Masalan, bog'da o'simlikni yaxshi o'sishi uchun qanday sharoit yaratish, o'yinchoqlarni qanday samarali joylashtirish kabi kichik vazifalar bolalar uchun muammo hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Mehnat bolalar uchun nafaqat yangi ko'nikmalarni o'rganish, balki o'z ishining qadri va qiymatini tushunishga yordam beradi. O'z ishining natijasini ko'rgan bola, har bir ishni, hatto kichigini ham, muhim deb bilib, o'z ishiga mehr qo'yadi. Mehnatni bajarishda ba'zan qiyinchiliklar paydo bo'lishi mumkin. Bolalar bu qiyinchiliklarga bardosh berishni, sabr-toqatni rivojlantirishni va muammolarni hal qilishda qat'iyatli bo'lishni o'rganadilar. Mehnatni o'rgatish bolalar uchun nazariy o'qishdan tashqari amaliy tajriba bilan bog'lanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi "Maktabgacha

ta'lim va tarbiyato'g'risida"gi O'RQ 595-sonli Qonuni.

2. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Maktabgacha ta'lim Agentligining 2023-yil 28-avgustdagi "MTT pedagoglarining xujjatlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 99-sonli Buyrug'i.

4. O'zbekiston Respublikasi "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari".

5. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim "Ilk Qadam" davlat o'quv dasturi.

6. Elektron ta'lim-tarbiya resurslari: <https://dzen.ru>, <https://puzzle-english.com>.

7. "Maktabgacha pedagogika" F.Qodirova "Tafakkur nashriyoti", Toshkent-2019.